

## YANGI O'ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIDA MUSTAHKAM OILANING MUHIM AHAMIYATI

Nosirova Dilfuza Nabiyeva

*Andijon viloyati Yuridik texnikumi**yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi, 3 chi darajali yurist.*

**Annotatsiya:** *O'zbekistonda oilani rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash borasidagi ishlarni tizimlashtirish va samaradorligini yanada oshirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida qaralmoqda. Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan 7 ta ustuvor yo'nalishlar va yuzta maqsadning barchasining negizi oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorligi, tinchligi va farovonligi masalalariga qaratilgan. Shuningdek, ushbu taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi aynan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, belgilab berilgan barcha masalalar xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash orqali oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oila, tizim, global, taraqqiyot, maqsad, strategiya, inson, negiz, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, barqarorligi, tinchlik, farovonlik, taraqqiyot, xotin-qizlar, jamiyat, hayot, ijtimoiy-iqtisodiy.*

Mamlakatimizda oilalarni ijtimoiy, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va farovonligini oshirishga mas'ul barcha vazirlik va idoralarning “mahallabay”, “xonadonbay” ish olib borish tizimi joriy etildi va ushbu noyob tizim amalda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni manzilli va tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha yangi tizim joriy etilmoqda. Prezidentimizning Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturda oila institutini mustahkamlash masalasiga ustuvor ahamiyat berilgan, bu borada:

- oila institutini mustahkamlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;
- demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish;
- oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash;
- oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish masalalari Milliy dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalargacha o'z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o'rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go'zal, jismonan va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo'li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmasligini ta'kidlashgan.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Baxtli oilalar tufayli baxtli jamoa vujudga keladi. Chunki, baxtli ota-onalar baxtli bolalarni ulg'aytiradilar. Bir-biriga mehr qo'ygan ota-onalarning farzandlari ham birbirlariga mehr qo'yadilar. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga

xos "tabiiy-biologik", iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Oila – kishilar hayotining eng muhim qismi, fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasidir. Bu muqaddas maskanda inson dunyoga keladi, aynan mana shu erda u ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol topadi. Oilada mehr-muhabbatning yuzaga kelishi va hukm surishi uchun quyidagi shartlarning bo'lishi ko'zda tutiladi:

- oila a'zolarining bir-birini qadrlashi;
- oila a'zolarining bir-birlariga ishonishi va himoyalashi;
- yaqinlik, o'zaro yordam va o'y-fikrlarini o'rtoqlashish;

– mas’uliyatni his qilishlari (ota-onalarning o’z burch va mas’uliyatlarini his etishi);

– qiyinchiliklarga qarshi birgalikda kurashib, ularni hal qilishlari;

– o’zligini ifoda eta olish va baxtli yashash uchun munosib muhit yarata olish;

– sog’lom moddiy va ma’naviy hayotga ega bo’lishlari;

Barchamizning asosiy maqsadimiz har bir oilaning huquq va manfaatlarini to’liq ro’yobga chiqarish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oilaviy munosabatlar muvozanatini ta’minlash orqali oilalar farovonligini oshirishdir. Har bir oila ma’naviy sog’lom, baxtli va xotirjam hayot kechirsa, farzandlarimiz baxtli bo’ladi, davlatimiz va jamiyatimiz ravnaqiga munosib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF81-son Farmoni.

3. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665/1539>

4. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2430/2095>